

## **Ingliz tilini o‘qitishd onlayn va an’anaviy metodlarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish**

*Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna*  
*shahnozasheraliyeva57@gmail.com*  
*O‘qituvchisi*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada onlayn ta’limning samaradorligi, uning an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllariga taqqosiy tahlili o‘tkazilgan. An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi bevosita aloqaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan bo‘lsa, masofaviy ta’limning zamonaviy texnologiyalar yordamida taqdim etilishi. natijasida o‘quv jarayonining moslashuvchanligi va qulayligi ta’kidlangan. Onlayn ta’limning o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari, vaqt va resurslarni tejash imkoniyatlari, shuningdek, texnologik muammolar va kommunikatsion cheklovlar kabi jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Onlayn ta’lim, an’anaviy ta’lim, masofaviy ta’lim, samaradorlik, texnologiyalar, ta’lim jarayoni, innovatsiya, ta’limning taqqosiy tahlili, mustaqil o‘rganish.*

## **Сравнительный анализ эффективности онлайн и традиционных методов обучения английскому языку**

*Шералиева Шахноза Усмановна*  
*shahnozasheraliyeva57@gmail.com*  
*Преподаватель*  
*Узбекский государственный университет мировых языков*

**Аннотация.** *В данной статье проведена эффективность онлайн-образования, его сравнительный анализ с традиционными и дистанционными формами обучения. Если анализируется роль и значение непосредственного контакта ученика и преподавателя в традиционном образовательном процессе, то дистанционное обучение представлено с помощью современных технологий. в результате была подчеркнута гибкость и удобство образовательного процесса. Были изучены такие аспекты онлайн-образования, как навыки самостоятельной работы студентов, возможности экономии времени и ресурсов, а также технологические проблемы и ограничения общения. В исследовании представлены рекомендации по повышению эффективности.*

**Ключевые слова:** *онлайн-образование, традиционное образование, дистанционное образование, эффективность, технологии, образовательный процесс, инновации, сравнительный анализ образования, самостоятельное исследование.*

## **Comparative analysis of effectiveness online and traditional methods of teaching English**

*Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna*  
*shahnozasheraliyeva57@gmail.com*  
*Teacher*  
*Uzbekistan State World Languages University*

**Annotation.** *In this article, the effectiveness of online education, its comparative analysis with traditional and distance education forms was conducted. If the role and importance of direct contact*

*between the student and the teacher in the traditional education process is analyzed, then distance education is presented with the help of modern technologies. as a result, the flexibility and convenience of the educational process was emphasized. Aspects of online education, such as students' independent work skills, opportunities to save time and resources, as well as technological problems and communication limitations, were studied. The study provides recommendations for improving efficiency.*

**Keywords:** Online education, traditional education, distance education, efficiency, technologies, educational process, innovation, comparative analysis of education, independent study.

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27- fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida» gi PQ 4623-son Qarorida «Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish, yuksak madaniyatli, amaliy, kasbiy ko'nikmalarga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash» kabi ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Tilshunoslikda zamonaviy axborot texnologiyalariga moslashish jarayonlari nihoyatda jadal ketmoqda. Xususan, ingliz tilini o'qitishda online va an'anaviy metodikaning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish o'qituvchilar va o'qituvchilar uchun muhim masala hisoblanib kelgan.

**Zamonaviy ta'lim tizimida texnologik rivojlanishning ta'siri tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, masofaviy va onlayn ta'lim shakllarining keng qo'llanilishi o'quv jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. An'anaviy ta'lim esa ko'p asrlik tajriba va qadriyatlar asosida shakllangan bo'lib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita muloqotni o'zining asosiy afzalligi sifatida namoyon etadi. Shu bilan birga, masofaviy ta'limning paydo bo'lishi va uning keng ko'lamda qo'llanilishi zamonaviy ta'lim jarayonining moslashuvchan va global xarakterini yoritmoqda. Ta'lim tizimi doimiy ravishda rivojlanib borayotgan jarayon bo'lib zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yangi o'qitish metodlari paydo bo'lmoqda. Pandemiya sharoitida yashash, ishlash, izlanish, ijod qilishga o'rgandik. Ko'zga ko'rinmas virus bizni yanada faolroq bo'lishga, hushyorlikni yo'qotmaslikka, yashash uchun kurashga undadi. Bu borada tajriba bo'lmasada, astoydil qilingan mehnat barchani o'z ustida ishlashga, izlanishga, samarali faoliyat olib borishga majbur qildi. 2020-2021-o'quv yilining asosiy talablari: faolroq ishlash va o'qitishga kreativ yondoshish, interaktiv usullardan foydalanish hamda o'qitishda raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda amaliyotda qo'llashdan iboratdir.**

Bu ikkala ta'lim shaklini samaradorlik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida onlayn va an'anaviy ta'lim o'rtasidagi optimal muvozanatni topish ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada an'anaviy va masofaviy ta'limning afzalliklari hamda kamchiliklari tahlil qilinib, onlayn ta'limning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## **An'anaviy va masofaviy ta'limning qiyosiy tahlili**

An'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarini samaradorlik, o'quv jarayoni tashkiloti, texnologiyadan foydalanish va kommunikatsiya imkoniyatlari nuqtai nazaridan qiyoslash ta'lim tizimining hozirgi ehtiyojlariga moslashishda muhim o'rin tutadi.

Ta'lim jarayoni tashkiloti:

An'anaviy ta'lim:

O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqot markaziy o'rinda bo'lib, o'quvchilar jamoaviy muhitda faoliyat yuritadi. Bu usulda o'qituvchining individual nazorati kuchliroq, o'quvchilarning tartib va intizomi yuqori darajada saqlanadi.

An'anaviy ta'lim- o'qituvchi va o'quvchilar bir joyda, odatda sinfxona va auditoriyada yuzmayuz muloqot orqali o'qitiladigan shaklidir. Bu tizim asosan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar va baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- talabalar va o'qiyuvchilar o'zaro bevosita muloqot qiladi;
- darslar belgilangan jadval asosida berib boriladi;
- o'quv materiallari dars davomida tushuntiriladi va muhokama qilinadi;
- sinf yoki auditoriya muhitida o'rganish imkoniyati mavjud;
- ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim:

O'quv jarayoni ko'proq mustaqil o'qishga asoslangan bo'lib, talabalar o'z vaqtini o'zlari boshqaradilar. Bu usulda texnologiyalardan foydalanish zaruriy bo'lib, ta'lim jarayoni moslashuvchan va joylashuvga bog'liq emas. Texnologiyalardan foydalanish: An'anaviy ta'lim: Texnologiyalardan cheklangan foydalanish kuzatiladi. Asosiy e'tibor an'anaviy materiallar – darsliklar va yozma topshiriqlarga qaratilgan. Masofaviy ta'lim: Zamonaviy texnologiyalar – videokonferensiyalar, virtual sinflar va onlayn platformalar yordamida ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Onlayn ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan ko'proq imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarni til o'rganish tajribasini boyitib, ularni globallashtirish jarayonida raqqobatbardosh bo'lishga tayyorlaydi. Zamonaviy texnologiyada til o'rganish jarayonini samarali oshirishda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1. Interaktiv o'qitish va motivatsiya. Bularga yuqorida keltirilgan mobil ilovalar (duolingo, Memrise, Anki) so'z boyligini mustahkamlash va talaffuzni rivojlantirishga yordam beradi. Gamifikatsiya (o'yin elementlari) orqali o'quvchilarni qiziqtirish va ularning rag'batini oshirish;

2. Sun'iy intellekt va shaxsiylashtirilgan ta'lim. AI yordamida adaptive o'qitish tizimlari o'quvchining darajasiga moslashtirilgan mashqlarni taqdim etadi. Chatbotlar va virtual suhbatdoshlar real hayotiy muloqot tajribasini taqdim etadi.

3. Onlayn darslar va masofaviy ta'lim Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyati kengaydi.

Coursera, UdeMy, edX kabi platformalar sifatli til kurslarini taklif qiladi.

4. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) VR texnologiyalari orqali immersive muhit yaratilib, o'quvchilar chet tilde muloqot qilishni real sharoitga yaqin holda o'rganish mumkin. AR dasturlari orqali vizualizatsiya va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish imkoni mavjud.

5. Avtomatlashtirilgan tarjima va yozma til ko'nikmalarini rivojlantirish Google translate, DeepL kabi tarjima tizimlari o'rganayotgan tilni tushunish va tarjima qilishda yordam beradi. Grammarly, QuillBot kabi AI vositalari yozma nutqni grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda foydalidir.

Biroq, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. An'anaviy ta'lim ijtimoiy va bevosita muloqotga asoslangan bo'lsa, masofaviy ta'lim moslashuvchanlik va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Samaradorlikka erishish uchun ushbu ikki shaklning afzalliklarini birlashtiruvchi yondashuvlar (gibrid ta'lim) amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

Onlayn va an'anaviy ta'limning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur mavzuning dolzarbligi va keng qamrovini tasdiqlaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutganligi sababli, ko'plab tadqiqotlar masofaviy ta'limning afzalliklari, kamchiliklari va samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan. Ko'pgina tadqiqotlarda onlayn ta'limning qulayligi va moslashuvchanligi asosiy afzallik sifatida ko'rsatilgan.

Xususan, Skinner “Sun’iy aql va tillarni o’rganish” maqolasida tilni osonlik bilan o’rganishda kompyuterning roli muhimligini ko’rsatadi. Kompyuterda ishlash o’z ustida ustida ishlash uchun qulay hisoblanib, internetdan o’ziga kerakli resurslarni topishga xizmat qiladi. Unda katta miqdorda tasdiqlangan hujjatlar mavjud.

A. Anderson o’z ishida onlayn ta’lim platformalarining o’quv jarayoniga ijobiy ta’sirini o’rganib, talabalar uchun moslashuvchan jadval yaratish samaradorlikni oshiruvchi omil ekanligini ta’kidlagan. Ammo, texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi ba’zi mintaqalarda bu usulning qo’llanilishini cheklashini qayd etgan. J. Brown tomonidan olib borilgan tadqiqotda an’anaviy ta’limning ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi o’rni tahlil qilingan. Uning xulosalariga ko’ra, bevosita muloqotning mavjudligi talabalar o’rtasida ijtimoiy bog’lanish va o’zaro yordamni kuchaytiradi. Shuningdek, o’quvchilar o’rtasidagi jamoaviy faoliyatning o’rni yuqori baholangan. Gibrid ta’lim modelini rivojlantirish masalasi bir qator ilmiy ishlarda batafsil yoritilgan. M. Richards ta’limning bu shakli o’quv jarayonida turli pedagogik yondashuvlarni muvaffaqiyatli birlashtirish imkonini berishini ta’kidlagan. U, xususan, onlayn va an’anaviy usullarning o’zaro integratsiyasi orqali samaradorlikni oshirish yo’llarini ko’rsatgan.

R. Clark onlayn ta’limda foydalanilayotgan zamonaviy platformalar va virtual sinflarning o’qituvchilar va talabalar uchun qulayligi, shuningdek, ularning texnik ko’nikmalariga bog’liqligi haqida fikr bildirgan. Ammo, u texnologik vositalarning texnik nosozliklari ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkinligini ta’kidlagan.

Onlayn ta’limning psixologik va ijtimoiy jihatlari: Talabalarning motivatsiyasi va psixologik barqarorligi bo’yicha tadqiqotlarda onlayn ta’lim jarayonida ijtimoiy aloqaning yetishmasligi ko’pincha stress va qiziqishning pasayishiga olib kelishi qayd etilgan (Lee, 2000).

Shunga qaramasdan, texnologiyalardan oqilona foydalanish bu muammolarni kamaytirishi mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, onlayn va an’anaviy ta’limning har biri o’ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Tadqiqotchilar bu ikki shaklni integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish yo’llarini izlamoqdalar. Shuning uchun, ta’lim jarayonida texnologiyalardan oqilona foydalanish va individual yondashuvni ta’minlash bo’yicha izchil strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

### **Muhokama**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, onlayn va an’anaviy ta’limning har biri turli ehtiyojlarni qondiruvchi va o’ziga xos afzalliklar hamda kamchiliklarga ega bo’lgan ta’lim shakllaridir. An’anaviy ta’lim jarayoni bevosita o’zaro aloqani ta’minlagan holda o’quvchilarni ijtimoiylashuvga va guruh hamkorlikka o’rgatishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim zamonaviy texnologiyalarni qo’llash orqali talabalar uchun qulaylik va moslashuvchanlik yaratib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Onlayn ta’lim samaradorligiga bir qator omillar ta’sir ko’rsatadi. Ular orasida texnologik vositalarning mavjudligi, o’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati va vaqtni samarali boshqarish ko’nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Biroq, onlayn ta’limda yuzaga keluvchi muammolar, masalan, texnik nosozliklar, internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi va kommunikatsiyaning yetarli darajada bo’lmisligi samaradorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shu bilan birga, an’anaviy ta’lim shakli ta’lim jarayonida nazorat va intizomni yuqori darajada ta’minlash imkonini beradi. Ammo, bu shaklning asosiy kamchiligi o’quvchilarning jadvalga qat’iy bog’lanishi va ta’lim jarayonining moslashuvchan emasligida namoyon bo’ladi. Muhokamalardan kelib chiqib, gibrid ta’lim modelini qo’llash bugungi kunda eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Bu model an’anaviy va masofaviy ta’limning afzalliklarini birlashtirgan holda, o’quv jarayonida moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Gibrid ta’lim nafaqat texnologiyalardan samarali foydalanishni, balki o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida jonli muloqotni saqlab qolishni ham ta’minlaydi. Shunday qilib, ta’lim samaradorligini oshirish uchun texnologiyalardan oqilona foydalanish, o’quvchilarni mustaqil ishlashga rag’batlantirish va ta’lim jarayonida individual

yondashuvni ta'minlash zarurligi aniqlanadi. Bu esa ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlarga moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Onlayn va an'anaviy ta'lim shakllarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki yondashuvning ta'lim jarayonida o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. An'anaviy ta'limning ijtimoiylashuv, bevosita muloqot va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni katta bo'lsa, masofaviy ta'lim zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim olish jarayonini moslashuvchan va qulay shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Onlayn ta'limning samaradorligi ko'proq texnologik infratuzilma, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari va vaqtni boshqarish qobiliyatlariga bog'liq. Biroq, kommunikatsiya va texnologik cheklovlar bu shaklning ayrim kamchiliklarini yuzaga keltiradi. An'anaviy ta'lim esa an'anaviy nazorat usullari va jamoaviy o'quv muhitini saqlab qolishda yuqori samaradorlikka ega, ammo vaqt va joyga bog'liq cheklovlar uning moslashuvchanligini pasaytiradi. Tahlillardan kelib chiqib, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda gibrid ta'lim modeli eng maqbul yondashuv ekanligi aniqlanadi. Bu model an'anaviy va masofaviy ta'limning eng yaxshi jihatlari birlashtirgan holda o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: Ingliz tilini o'qitishda an'anaviy va onlayn metodlarning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Eng samarali natijalarga erishish uchun ularni kombinatsiyalash maqsadga muvofiqdir. Gibrid ta'lim modeli (onlayn va an'anaviy usullarni birlashtirish) o'quvchilarga yanada samarali va moslashuvchan ta'lim olish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. (2020, February 27). *Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida* PQ 4623-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. (2018, December 8). *Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida* 997-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. (2019, April 29). *Xalq ta'limi tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to'g'risidagi PF5712-sonli farmoni*. <https://www.lex.uz>
4. *4-sinf o'qish savodxonligi kitobi: Toshbag'ir hikoyasi*. (2021). *PIRLS 2021 International results*.
5. Abdullayeva, M. (2019). Chet tillarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Xalq ta'limi*, 3, 68-72.
6. Chappelle, C. A. (2020). Computer-assisted language learning. In *The Concise Encyclopedia of Applied Linguistics* (pp. 217-223).
7. Reinhardt, J. (2019). Social media in second and foreign language teaching and learning: Blogs, wikis, and social networking. *Language Teaching*, 52(1), 1-39.
8. Toshpulatova, F. (n.d.). *Onlayn ta'limning samaradorligi: An'anaviy va masofaviy ta'limning qiyosiy tahlili*. Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14738773>
9. *Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash: Boshlang'ich sinf o'qituvchilar, metodistlar va sohaga mutaxassislar uchun metodik qo'llanma*. (2019). Ta'lim instituti huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi, Toshkent.